

O'ZBEK TILIDA KO'MAKCHILAR TIZIMI VA ULARNING SINONIMIK HUSUSIYATLARINI O'RGANISH.

20-maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Sattorqulova Shalola To'ychi qizi

shalolasattorqulova995@gmail.com

+998933210495

Adabiy tilning boyib borishida tilimizning ichki imkoniyatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tildagi har qanday o'zgarish, avvalo, leksik qatlamda ko'zga tashlanadi va shu qatlamda shakllanib boradi. Ayniqsa, istiqlol yillarida boshqa sohalardagi islohotlar kabi o'zbek tili leksikografiyasida ham qator islohotlar bo'ldi. O'zbek tilining izohli lug'ati yangidan nashr etildi va bu lug'at o'z tarkibiga 80 mingdan ortiq so'zni kiritdi. Buning natijasida qator tadqiqotlar yaratildi. Leksik qatlamni o'rganish ko'lami yanada ortdi. Bu tadqiqotlarda tilni leksik-semantik, lingvostatistik va leksikografik usullarda tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, tilshunoslikda so'zlarni turkumlarga ajratishda morfologik, sintaktik va mazmuniy belgilar birgalikda olinadi. Ko'makchilar ham shu uch belgi asosida turkumlangan. Ko'makchilar morfologik jihatdan mustaqil paradigmaga ega emasligi, sintaktik jihatdan gapning mustaqil bo'lagi bo'la olmasligi, mazmuniy jihatdan vosita, maqsad, sabab, vaqt va shu kabi boshqa munosabatlar anglata olishligi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lgan bo'lsa ham, ular hozirgi zamon o'zbek tilida leksik ma'nolarini yo'qotgan, lekin grammatik ma'nosi bor so'zlar. Shuning uchun ham mustaqil so'zlar bilan birgalikda ishlatiladi. Ko'makchilar obyektlar o'rtaсидаги makon, vaqt, sabab, maqsad, egalik, chegaralash kabi munosabatlarni ifodalaydi yoki obyektlarning harakatga, holatga, sifatga yuqoridaғicha munosabatlarini bildiradi. Ko'makchilarning xususiy ma'nolari biror kelishik formasidagi shaxs yoki predmet bilan qo'shilgandagina yuzaga keladi. Shuning uchun ham A.A.Shaxmatov ko'makchilar kelishik formalari anglatgan ma'noni mustahkamlaydi, to'ldiradi, kuchaytiradi, - deydi. Ko'makchilar xilma-xil grammatik munosabatlarni ifodalaydi. A.A.Shaxmatov birinchi bo'lib ko'makchilarning grammatik munosabatlarini sistemaga solishga harakat qildi. Rus tilshunosligida ko'makchilar va ularning grammatik munosabatlari V.V.Vinogradov ishlarida to'laqonli o'z ifodasini topgan.

Xususan, o'zbek tiliga oid darslik va qo'llanmalarning aksariyatida ko'makchilar "bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelib, so'zlar orasida vosita maqsad, sabab, vaqt, makon kabi turli-tuman munosabatlarni ifodalashi" (III. Шоабдураҳмонов. 1980: 405; У. Тұпсынов. 1992: 374); "obyektni obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan grammatik munosabatini ko'rsatishi" (R. Sayfullaeva.

2009: 268) kabi sintaktik ko'rsatkichlardan kelib chiqib izohlanadi. O'zbek tiliga sistem-struktur tamoyilning tatbiq etilishi munosabati bilan esa formal jihatdan so'z shakli, vazifasiga ko'ra kelishik qo'shimchalari bilan o'xshash bo'lgan ushbu nomustaqlil birliklarning til tizimida tutgan o'rnini: leksema va affiks morfemalar oralig'idagi uchinchi sifatida (R. Sayfullaeva. 2009: 273); leksema shakllar tarkibidagi noperadigmatik morfemalardan tarkib topadigan affiksoid (III. Paxmatullaev. 2010: 142); lug'aviy birlik va affikslardan farqlanuvchi so'z morfema degan izohlar asosida belgilanishi ham kuzatiladi (A. Xожиев. 2010: 44).

Ko'makchilar tuzilishi va lisoniy mohiyatiga ko'ra sof, vazifadosh va qo'shimchasimon turlardan tashkil topishidan qat'iy nazar, ularning kelib chiqish manbai mustaqil so'zlar ekani barcha manbalarda yakdillik bilan e'tirof etiladi. T. Rustamovning "Sof ko'makchilar" nomli risolasida esa ushbu etimologik asos sof ko'makchilarning kelib chiqish manbalari vazifadosh shakllar singari mustaqil so'zlarga (asosan ism guruhiga mansub so'zlarga) borib taqalishi (bilan: bir+la, -lan fe'l yasovchi qo'shimchalarining birikishidan, uchun: uch+un vosita kelishigining ko'shimchasi birikishidan, kabi: "forma, shakl" ma'nosidagi kab, keb, kib+i egalik ko'shimchasing birikishidan) o'zbek tili tarixining XIII-XX asrlariga oid lug'atlar va badiiy manbalarga tayanilgan holda dalillangan.

O'z lug'aviy ma'nosini qisman saqlagan, gapda ko'makchi vazifasida qo'llanadigan so'zlar ko'makchi otdir. Ularga old, orqa, huzur, yuza, haq, xusus, to'g'ri, tashqari, yon, o'rta, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, tomon kabi so'zlar kiradi. Ko'makchi otlar harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatni ifodalaydi. Ular kelishik va egalik qo'shimchalarini qabul qilishi mumkin: ostida, tagidan, ustiga, oldida, orqasiga, yonidan, o'rtasi, orasi, boshi kabi. Faqat bu so'zlar gapda o'zidan oldingi so'zlar bilan qaratqich-qaralmish munosabati asosida birikib kelishi lozim. Aks holda o'rin oti hisoblanadi: ko'priq ostida, suv tagidan, ko'chaning boshida, deraza yonida kabi. Ko'makchilarning qo'llanishi Ko'makchilar gapdagisi vazifasiga ko'ra kelishiklarga yaqin turadi. Shuning uchun ko'p hollarda kelishik qo'shimchalariga sinonim bo'ladi: avtobusda keldim – avtobus bilan keldim, ukamga oldim – ukam uchun oldim. Nutqimizda faol qo'llanadigan ko'makchilarga quyidagilar kiradi: azbaroyi, bilan, uchun, kabi, ilgari, burun, bosh, chog'li, qadar, sayin, bo'yicha, orqa, orqali, ora, sababli, ko'ra, yon, ich, qarshi, o'rta, tomon, qarab, qaramasdan, qaramay, so'ng, boshqa, keyin, tashqari, ost, ust, tag, buyon, beri, bo'lak, o'zga, holda, asosan, doir, binoan kabi. Ko'makchilarni qaysi kelishikdagi so'zni boshqarishiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1. Bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadigan ko'makchilar: Bilan. Birgalik, hamkorlik, qurolvosita, harakatning ketma-ketligi, vaqt, holat kabi ma'nolarni ifodalashda ishlataladi. Badiiy adabiyotda –la, birla, ila shakllari ham uchraydi. Masalan: Ertaga shaharga tushing, akam bilan so'zlashib ishni bitiramiz (Oybek). Sharofat oldida turgan choynak

bilan uning basharasiga tushirdi (A.Qahhor). Deraza ochilishi bilan Yo‘lchi boshini ko‘tardi (Oybek). Siddiqjon kechasi bilan kiprik qoqmay chiqdi (A.Qahhor). Yo‘lchi jahl bilan o‘rnidan turdi (Oybek). Uchun. Maqsad, sabab, atash, evaz ma’nolarida qo‘llanadi. Badiiy adabiyot Ko‘makchilarning umumiy ma’nosи ularning sinonimlik xususiyati bo‘lib, albatta, har qaysi ko‘makchining o‘ziga xos stilistik ahamiyati ham sezilib turadi. Masalan, sari ko‘makchisi o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lib, Istiqlol sari olg‘a kabi konstruksiyalardagina ishlatalib, sari ko‘makchisi o‘rnida boshqa bir ko‘makchi yoki grammatik vositani qo‘llash mumkin emas. Chunki bunday konstruksiya shiorlar yaratilishida tuzilib, undagi komponentlar turg‘un birikma shakliga yaqinlashadi. Ko‘makchilarning bunday xususiyatlariga ham ishning yoritilishi jarayonida alohida e’tibor beriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ko‘makchilarni grammatik, funksional, semantik va pragmatik jihatdan tadqiq qilishni takomillashtirish oldimizda turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi va masala o‘zbek tilchilarining zimmasidagi vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamov T. Sof ko‘makchilar.- Toshkent: Fan, 1991. - 124 b.
2. Berdiyorov H. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida so‘ngko‘makchilar: Filol.fan. nomz. ...dis-ya. - Samarqand, 1949. - 134 b.
3. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap; «O‘zbek tili va adabiyoti», 1986. 6- son
4. Sayfullayva R.R, Mengliyev B. R., Boqiyva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.– T.: “Fan va texnologiya”, 2009.
5. Xojiyev A. O‘zbek tilida morfologiysi,morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. - T.: “Fan”, 2010.
6. Rahimov A. Leksik va semantik derevatsiya muommolari. - T.: “Navro’z”. 2011.